Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari.....	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identitlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni.....	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties.....	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat.....	908
<i>Zakirova Dilsuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	912
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlarini	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari.....	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	
Дифференцированный подход как условие для преодоления дислексии у учащихся.....	935
<i>Моминова Тойгул Боходир кизи</i>	
Improving the Methodology of Developing Phonetic Competencies of Primary School Students.....	939
<i>Zilolaxon Kenjayeva Saminjon kizi</i>	
Bolalar tadbirkorligini rivojlantirishning zaruriyati.....	943
<i>Axmadaliyeva Muxarramoy Olimjon qizi</i>	
Assessing and Monitoring Pedagogical Creativity in Modern Education Processes	948
<i>Abdulkhayev Abduvokhid Abdulbori ugli</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning milliy an'ana va pedagogik tajribalar asosida tahlili	951
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktabgacha ta'lim sohasida inson resurslarini rejalashtirishning ahamiyati va mehnat bozori tendensiyalari tahlili	956
<i>N. Sh. Miryusupova</i>	
Emotsional intellektning ahamiyati va uning psixologik hamda fiziologik xususiyatlari.....	960
<i>Bahodirova Shahnoza Rustam qizi</i>	
O'zbek tili darslarida o'quvchilarda PISA topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish.....	964
<i>Kamshat Baymenova</i>	
Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim omili sifatida.....	967
<i>Kazakov Ne'mat Normurodovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni shakllantirishda kasbiy refleksiyaning psixologik-pedagogik asoslari	971
<i>Komiljonova Dilyoraxon</i>	
O'zbek xalq dostonlarini interfaol usullar yordamida o'qitish.....	973
<i>Nurjanova Yulduz Shukirillaevna</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishning tarkibiy-funksional tuzilmasi	976
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
Kasbiy maslahat – maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning samarali vositasi sifatida.....	980
<i>Raxmatova Sevara Abdulloevna, Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich</i>	
Umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari	986
<i>Saydullayeva Shahlo Sobir qizi</i>	

Pedagogik modellashtirishning o'ziga xos jihatlari va nazariy asoslari	990
Sharipov A'zamjon Axmadjonovich	
Talabalarda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari	994
Valixanov Ilyos Iloxamovich	
Ta'lim texnologiyalarini mashg'ulotlarda qo'llashning o'ziga xos jihatlari.....	998
Valiyev Sarvar Abdusalimovich	
Ishonch – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida	1002
Xo'jamova Kamola To'liqin qizi	
Jahon va O'zbekiston tajribasida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish yondashuvlari.....	1006
Rajapov Sulaymon Nuraddin o'g'li	
Iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida ingliz tilining o'rni va ahamiyati	1010
Samandarova Nargiza Muxammadovna	
Praksiologik yondashuv – pedagogik ta'limning metodologik asosi sifatida.....	1015
Rashidova Zulayho Olimjon qizi	
Talabalarga ingliz tilini o'rgatishda "pen pals" loyihasidan foydalanish modeli.....	1020
Tuymanova Inobat Fozilovna	
Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarini tashkil etish metodlari	1024
Ahmadaliyeva Hilolaxon A'zamjon qizi	
O'zbekistonda ingliz tilini o'rganayotgan yosh o'quvchilarda gapirishga bo'lgan xavotir darajasi: rol o'ynash intervensiyasi	1029
Mannapova Maftunaxon	
Ingliz tili darslarida o'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini story-based learning usulidan foydalanib shakllantirish metodikasi	1033
Xalilova Sevara Kamoliddin qizi	
Integrating the Case Study Method Into Teaching Medical English: an Innovative Pedagogical Research.....	1037
Xoshimova Azizaxon Saxobiddinovna	
Boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil qilishning ahamiyati va samaradorligi	1041
Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi	
Критерии эффективности системного подхода в образовании и воспитании детей, находящихся на длительном лечении	1044
Алимова Нигора Исраиловна	
Развитие учебной мотивации через дифференцированный подход в преподавании физики.....	1049
А. Б. Камалов, М. П. Серимбетова	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida media savodxonlikni shakllantirish metodikasi	1053
Astanaqulova Nilufar Dilmurod qizi	
Talabalarda web platformadan foydalanish asosida kompyuterli modellashtirish ko'nikmasini rivojlantirish	1058
Xazratqulov Abduvohid Abdurauf o'g'li	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish	1062
Gulyamova Aziza Anvarovna	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holati	1066
Solijonov Jasurbek Valeriy o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlantirishning shart-sharoitlari	1070
Umarova Mehriniso Ibragim qizi	
Etnomadaniy kompetentlik tushunchasining genezisi va zamonaviy talqinlari	1074
Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li	
O'smir qizlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishda ota-onalarning roli	1078
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Kreativ fikrlash kompetensiyalarining mazmuni va ahamiyati	1081
Yuldashev Shukrullo	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqining talaffuz tomonini shakllantirishda differensial yondashuv	1086
Abdunazarov Abdumutal Olimovich, Toshpulatova Muxlisa Toshpulot qizi	



Sensor integratsiya asosida aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashda nutqga ta'sir etishning korreksion ahamiyati	1089
<i>Akramova Xafiza Samadovna, Raximova Zarina Shuxrat qizi</i>	
Talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida qadriyatlarining o'rni va ahamiyati.....	1093
<i>Boboxujayev Joxonmirzo Umar o'g'li</i>	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	1096
<i>Pardayev Asror Ikromvich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasi.....	1099
<i>Parmonova Laylo Ilxomovna</i>	
Формирование эмоционального интеллекта у младших школьников средствами сказкотерапии.....	1102
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Fizika ta'limida STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda kasbiy va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish.....	1105
<i>Mamatoxunov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Bolalik autizmi: logopedik va psixologik yondashuvlar asosida o'rganish	1112
<i>Xalilova Shaxnoza Ikromjon qizi</i>	
O'quvchilarning tasavvur qilish ko'nikmalarini oshirishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasining ahamiyati	1114
<i>Mamadjanova Nozima Adxamovna</i>	
Axborot maydonida yoshlar tarbiyasi: axloq va ommaviy madaniyat muammolari.....	1117
<i>Rayxona Surobova</i>	
Raqamli charchoq: onlayn hayotning psixologik oqibatlarini.....	1120
<i>Azizova Shodiya Utkur qizi</i>	
Boshqaruv psixologiyasiga oid terminlarning tarjimada ekvivalentlik xususiyatlari	1123
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Dyuzdo sportining yoshlar orasida milliy g'urur va jismoniy madaniyatni shakllantirishdagi roli	1126
<i>Tangriyev Abdullo Tovashovich</i>	



DYUZDO SPORTINING YOSHLAR ORASIDA MILLIY G'URUR VA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Tangriyev Abdullo Tovashovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
dotsenti, (PhD) O'zbekiston Dzyudo terma jamoasi a'zosi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dyuzdo sportining yoshlar orasida milliy g'urur, jismoniy madaniyat va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda dyuzdo mashg'ulotlarining tarbiyaviy, psixologik va ijtimoiy ta'siri ko'rsatilib, ularning yoshlar ongida vatanparvarlik, intizom va o'zini nazorat qilish fazilatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ta'lim tizimiga dyuzdo dasturlarini integratsiya qilish hamda murabbiylar malakasini oshirish orqali sohani rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: dyuzdo, yoshlar, jismoniy madaniyat, milliy g'urur, tarbiya, sport pedagogikasi, vatanparvarlik.

Abstract: This article analyzes the role of judo in shaping national pride, physical culture, and moral values among young people. The research highlights the educational, psychological, and social impact of judo training, emphasizing its importance in developing patriotism, discipline, and self-control in youth. The study also outlines prospects for integrating judo programs into the education system and improving coach training to enhance the sport's developmental potential.

Key words: judo, youth, physical culture, national pride, education, sport pedagogy, patriotism.

Аннотация: В данной статье рассмотрена роль дзюдо в формировании национальной гордости, физической культуры и моральных ценностей среди молодежи. Исследование раскрывает воспитательное, психологическое и социальное влияние занятий дзюдо, подчеркивая их значение в развитии патриотизма, дисциплины и самоконтроля у молодых людей. Также обозначены перспективы интеграции программ дзюдо в систему образования и повышения квалификации тренеров для дальнейшего развития данного направления.

Ключевые слова: дзюдо, молодежь, физическая культура, национальная гордость, воспитание, спортивная педагогика, патриотизм.

KIRISH

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport jamiyatning har tomonlama rivojlanishida, ayniqsa, yosh avlodni sog'lom va vatanparvar ruhda tarbiyalashda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, dyuzdo sport turi nafaqat jismoniy chiniqish vositasi, balki yoshlarning ma'naviy barkamolligini, milliy g'ururini va irodaviy fazilatlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Dyuzdo O'zbekiston sport an'analari tizimida kurash turlarining zamonaviy shakli sifatida shakllangan bo'lib, u yoshlar orasida intizom, hurmat, matonat, o'zini boshqarish va raqibga nisbatan ehtirom kabi insoniy qadriyatlarni mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirish, yoshlarni xalqaro arenalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "Yoshlar siyosatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"da jismoniy tarbiya va sportni yoshlar ongida milliy g'ururni mustahkamlovchi omil sifatida rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu jarayonda dyuzdo sporti yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, vatanparvarlik ruhini kuchaytirish hamda xalqaro sport maydonlarida O'zbekiston bayrog'ini baland ko'taruvchi avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, dyuzdo sportining yoshlar tarbiyasidagi ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlarini chuqur tahlil etish orqali ularning milliy o'zlikni anglash, g'urur va mas'uliyat hissini rivojlantirishdagi ta'sirini aniqlash zarurati paydo bo'lmoqda. Shuningdek, dyuzdo mashg'ulotlari jarayonida shakllanadigan jismoniy madaniyatning jamiyatning umumiy madaniy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini o'rganish ham ushbu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.



Shu bois, maqolada dyuzdo sportining yoshlar orasida milliy g'urur, irodaviy barkamollik va jismoniy madaniyatni shakllantirishdagi roli har tomonlama tahlil qilinadi, mavjud tajriba va ilmiy yondashuvlar asosida ushbu sport turining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ochib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dyuzdo konsepsiyasining pedagogik asoslarini o'rganishda Jigoro Kano'ning qarashlari markaziy o'rin tutadi. Kano dyuzdoni faqat jang san'ati emas, balki insonni jismonan va axloqan tarbiyalashning tizimli usuli sifatida talqin qiladi. U randori va kuzushi prinsiplari orqali intizom, o'zini boshqarish hamda hamkorlik tamoyillarini singdirishni maqsad qilgan. Kano'ning ta'kidlashicha, dyuzdo mashg'ulotlari yoshlarning ma'naviy va axloqiy yetukligini shakllantirishga xizmat qiladi, shu bois ularni ta'limiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida ko'rish lozim.

Sport sotsiologiyasi adabiyotlari sport va milliy identitet o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qiladi. Joseph Maguire ishlarida sport globalizatsiya jarayonida milliy identitet va nostalgiya mexanizmlarining qanday transformatsiyalanishini ko'rsatadi. Maguire'ning fikricha, sportdagi yutuqlar va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlar jamiyatlarda milliy g'ururni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar orasida milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda bu mexanizm kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sport tadbirlari va elita darajasidagi muvaffaqiyatlar jamoaviy identifikatsiya vositasi sifatida milliy birlikni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan, Jay Coakley'ning sport sotsiologiyasi bo'yicha izlanmalari sportning jamiyatdagi o'rni va funksiyalarini tizimli tarzda yoritadi. Coakley sportni ijtimoiy integratsiya, qoidalarga asoslangan xulq-atvorni shakllantirish va madaniy qadriyatlarni uzatish vositasi sifatida ko'radi. U yoshlarning sport orqali jamiyatga moslashuvi, jamoaviylik, yetakchilik va mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirish jarayonlarini tahlil qiladi. Ushbu nazariy baza dyuzdo mashg'ulotlarining pedagogik, sotsiokulturn va axloqiy jihatlarini ilmiy asoslash uchun muhim ahamiyatga ega.

Dyuzdoning jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli sport-biologik tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Emerson Franchini va hamkorlarining izlanishlari shuni ko'rsatadiki, dyuzdo sportchilari yuqori darajadagi anaerob quvvat, past tana yog'i foizi hamda muvozanat va boshqaruvchanlik kabi fiziologik xususiyatlarga ega. Bu jihatlar yoshlar uchun jismoniy madaniyatning amaliy ifodasi bo'lib, ularni sog'lom hayot tarziga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, fiziologik tayyorgarlik jarayoni yoshlarning intizom, qat'iyat va o'zini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, bu esa ma'naviy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar sport va milliy g'urur o'rtasidagi aloqani yoshlar psixologiyasi nuqtayi nazaridan o'rganishga yo'naltirilgan. Empirik natijalar xalqaro musobaqalar va yirik sport tadbirlari jarayonida yoshlar orasida milliy g'urur va ijtimoiy birlashuv hissining ortishini ko'rsatadi. Bunday tajribalar yoshlarning identitetini mustahkamlash va ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mahalliy va milliy judo maktablari orqali tashkil etilgan ta'limiy dasturlar yoshlar orasida vatanparvarlik va jismoniy madaniyatni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Mahalliy amaliy tadqiqotlar esa dyuzdo bo'yicha maktab va klub tizimlarining pedagogik komponentlarini kuchaytirish yoshlarning ijtimoiy ko'nikmalari, mehnatsevarlik va hurmat kabi qadriyatlarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatadi. Yangi tahliliy ishlarda sport tadbirlari, turizm va jamoaviy identifikatsiya jarayonlarini o'lchash bo'yicha metodologik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Bu yondashuvlar dyuzdo pedagogikasi-ning samaradorligini baholash hamda tarbiyaviy dasturlarni ilmiy asoslashda qo'llanilishi mumkin.

Xalqaro, sotsiologik va biologik-pedagogik adabiyotlar dyuzdoni nafaqat jismoniy tayyorgarlik vositasi, balki yoshlarning ma'naviy, axloqiy va milliy identitetini shakllantiruvchi kompleks tarbiya tizimi sifatida talqin etadi. Kano'ning ta'limiy falsafasi, Maguire'ning milliy identitet haqidagi tahlillari, Coakley'ning sotsiologik izlanishlari hamda Franchini va boshqa tadqiqotchilarning fiziologik natijalari birgalikda dyuzdoning yoshlar tarbiyasidagi multifunksional rolini asoslaydi. Shu ilmiy bazaga tayanib, mahalliy kontekst uchun dyuzdo pedagogik dasturlarini milliy tarbiya elementlari bilan uyg'unlashtirish va ularni ta'lim tizimida amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda asosiy ma'lumotlar O'zbekiston va xalqaro judo federatsiyalarining rasmiy statistik hisobotlari, sport ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha kuzatuvlar hamda yosh sportchilar va murabbiylar bilan o'tkazilgan so'rovnoma orqali olindi. Olingan ma'lumotlar tahlilida taqqoslash, korrelyatsion hamda kontent tahlil usullari qo'llanilib, dyuzdoning tarbiyaviy va ijtimoiy ta'siri baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatda sport nafaqat jismoniy tayyorgarlik yoki musobaqalardagi g'alabalar bilan chegaralanadi, balki u yoshlar ongida milliy g'urur, irodaviy mustahkamlik va sog'lom dunyoqarashni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik hodisaga aylanmoqda. Shu jihatdan dyuzdo sporti O'zbekiston sharoitida yoshlarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish, ularni ma'naviy jihatdan yetuk, vatanparvar, mas'uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Dyuzdo sportining falsafasi "ju" – ya'ni moslashuvchanlik, muvozanat va o'zaro hurmat tamoyillariga tayanadi. Bu tamoyillar sport mashg'ulotlari orqali yoshlarning ichki dunyosiga singadi va ularning hayotiy qarashlari hamda axloqiy xatti-harakatlarini shakllantiradi (1-jadval).

1-jadval: Dyuzdo sportining yoshlar rivojlanishiga ko'rsatadigan asosiy ta'sir yo'nalishlari

Yo'nalish	Ta'sir mazmuni	Kutilayotgan natijalar
Jismoniy rivojlanish	Mashg'ulotlar orqali chaqqonlik, muvozanat, kuch va chidamlilikni rivojlantirish	Sog'lom organizm, yuqori jismoniy tayyorgarlik, sportga barqaror qiziqish
Psixologik barqarorlik	Raqobat jarayonida stressni yengish, o'zini boshqarish va diqqatni jamlashni o'rganish	O'ziga ishonch, sabr-toqat, ruhiy barqarorlik va motivatsiya
Axloqiy tarbiya	"Hurmat", "halollik", "jasorat" qadriyatlarini amaliy o'rganish	O'zaro hurmat, intizom, mas'uliyatli xulq va ijobiy ijtimoiy fazilatlar
Milliy g'urur	Dyuzdo orqali xalqaro musobaqalarda mamlakat nomini yuksaltirish	Vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasi
Ijtimoiy integratsiya	Jamoaviy mashg'ulotlar, o'zaro yordam va hamkorlik madaniyatini shakllantirish	Jamoaviylik, liderlik qobiliyati, kommunikativ kompetensiya
Ta'limiy ahamiyat	Dyuzdoni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, sport va o'qish uyg'unligini ta'minlash	Shaxsning har tomonlama kamoloti, aqliy va jismoniy rivojlanish muvozanati

Mazkur jadval dyuzdoning yoshlar rivojlanishidagi kompleks ta'sir yo'nalishlarini ko'rsatadi. Avvalo, dyuzdo jismoniy faollikni oshirish bilan birga, sportchini sog'lom turmush tarziga undaydi. Psixologik jihatdan, u yoshlarni stressga bardoshli, irodali va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishga o'rgatadi. Axloqiy tomondan esa, dyuzdo mashg'ulotlari orqali yoshlar "hurmat", "halollik" va "jasorat" kabi universal qadriyatlarni o'zlashtiradi, bu ularning kundalik xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Milliy g'urur komponenti esa ayniqsa muhim: sportchi o'z g'alabasi orqali Vatan sha'nini himoya qiladi, bu esa yoshlar orasida vatanparvarlik ruhini kuchaytiradi. Ijtimoiy jihatdan, jamoaviy mashg'ulotlar yoshlarni muloqot, hamkorlik va liderlikka o'rgatadi. Ta'limiy nuqtayi nazardan dyuzdoning o'qish jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning intellektual va jismoniy rivojlanishini uyg'unlashtiradi. Shu bois, dyuzdo yoshlarni har tomonlama – jismoniy, ruhiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantiruvchi samarali vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Dyuzdoning yoshlar ongidagi tarbiyaviy ahamiyati birinchi navbatda intizom, irodaviy mustahkamlik va o'zini nazorat qilish fazilatlarini rivojlantirishda ko'rinadi. Mashg'ulotlar jarayonida qat'iyat, sabr-toqat, o'z harakatlarini muvofiqlashtirish va raqibga hurmat bilan yondashish asosiy tamoyil sifatida shakllanadi. Bu jarayon shunchaki sport texnikasini o'zlashtirish emas, balki hayot falsafasini, axloqiy tamoyillarni anglash jarayonidir. Ayniqsa, yoshlar uchun dyuzdo darslari jismoniy kuchni to'g'ri yo'naltirish, his-tuyg'ularni nazorat qilish, yengilganda ham o'zini tuta bilish, g'alaba qozonganda esa kamtarlikni saqlashni o'rgatadi. Shu orqali sport shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy g'ururni shakllantirishda dyuzdoning o'рни yanada chuqurroq. Sportchining kiyimi, salomlashish madaniyati, kurash jarayonidagi odob qoidalari – bularning barchasi insonda tartib, hurmat va an'anaga sodiqlik hissini kuchaytiradi. Bu qadriyatlar yoshlarning o'z milliy ildizlarini, xalqning madaniy merosini anglashida muhim o'rin tutadi. O'zbekiston sportchilarining xalqaro maydonlarda erishgan yutuqlari esa yosh avlodda "men ham Vatanim nomini yuksaltira olaman" degan ruhiy turtkini uyg'otadi. Shu jihatdan dyuzdo milliy o'zlikni anglash va milliy g'ururni shakllantirishda kuchli psixologik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, dyuzdo mashg'ulotlari yoshlarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda kompleks ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon tananing barcha mushak guruhlarini ishga soladi, koordinatsiya, muvozanat, chaqqonlik, reaksiya tezligini rivojlantiradi. Ammo jismoniy madaniyat faqat mushak faoliyati emas – u sog'lom turmush tarzini ongli ravishda tanlash, organizm imkoniyatlarini to'g'ri boshqarish, to'g'ri ovqatlanish, dam olish va stressni boshqarish madaniyatidir. Dyuzdo bilan shug'ullanuvchi yoshlar bu tamoyillarni sport zalidan tashqariga – kundalik hayotga ko'chiradilar. Natijada ular nafaqat kuchli sportchilar, balki sog'lom hayot tarzini olib boruvchi, o'z organizmiga mas'uliyat bilan qaraydigan shaxs sifatida shakllanadi.



Dyuzdo mashg'ulotlarining ijtimoiy va psixologik afzalliklari ham e'tiborga loyiq.

Birinchidan, bu sport turi yoshlarni jamoaviy ruhda tarbiyalaydi: ular birgalikda mashq qilishadi, raqiblarini do'st sifatida ko'rishadi, hamkorlikni qadrlashni o'rganishadi.

Ikkinchidan, judo yoshlar orasida stressga bardoshlilikni oshiradi. Har bir raqobat jarayonida ularda hissiy barqarorlik, muvozanatni saqlash qobiliyati mustahkamlanadi.

Uchinchi tomondan, dyuzdo o'z imkoniyatlariga ishonch hissini kuchaytiradi. Yosh sportchi har bir muvaffaqiyat orqali o'z mehnati natijasini ko'radi, bu esa unda o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Bugungi globallashtirish sharoitida yoshlar ongiga turli g'oyalar, axborot oqimlari ta'sir ko'rsatmoqda. Shu fon sharoitida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlovchi omillar nihoyatda zarur. Dyuzdo ana shunday vositalardan biridir. Chunki bu sport turi yoshlarni jismonan chiniqtiribgina qolmay, ularning ichki dunyosida milliy o'zlik, an'anaga sodiqlik va yurt sha'nini himoya qilish ruhini shakllantiradi. Sport orqali tarbiya konsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy faoliyat orqali o'qituvchi yosh ongiga axloqiy qadriyatlarni singdirish imkoniyatiga ega. Dyuzdo mashg'ulotlarida "hurmat", "halollik", "jasorat" kabi tushunchalar har bir harakat bilan bog'lanadi. Shu tariqa u sportdan ham ko'ra kengroq – madaniy va axloqiy maktab vazifasini bajaradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan olganda, dyuzdo yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida o'zgarmas o'rin tutadi. Mashg'ulotlar orqali ular ierarxiya va intizomni qabul qilish, kattalarga hurmat, tengdoshlariga yordam, kichiklarga g'amxo'rlik tamoyillarini o'zlashtiradi. Murabbiy esa bu jarayonda nafaqat texnik bilim beruvchi, balki axloqiy yo'l boshchi sifatida chiqadi. Aynan shu jihat dyuzdoni boshqa sport turlaridan ajratib turadi – u shaxsni sportchi sifatida emas, balki jamiyat a'zosi sifatida tarbiyalaydi.

Psixologik jihatdan esa, dyuzdo yoshlarning o'z "men"ini topish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Kurash paytida ular o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadi, muvaffaqiyatsizliklarga dosh berishni o'rganadi, bu esa hayotda mustahkamlik va qat'iyatlilik sifatlarini rivojlantiradi. Raqibni mag'lub etishdan ko'ra, o'z qo'rquvi, shubhasi va dangasaligini yengish muhimroq ekanini anglaydi. Shu jihatdan dyuzdo o'z-o'zini yengish falsafasini yosh ongiga singdiradi. Bu falsafa hayotda to'siqlarga bardosh berish, mustaqil qaror qabul qilish va maqsad sari intilish qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, dyuzdoning tarbiyaviy roli milliy g'ururni amaliy shaklda mustahkamlashda yaqqol ko'rinadi. Har bir xalq o'z yosh avlodini jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash orqali millat kelajagini kafolatlaydi. O'zbekiston sportchilari, xususan, dyuzdochilar xalqaro musobaqalarda erishayotgan muvaffaqiyatlar orqali mamlakat nufuzini oshirmoqda. Bu jarayon yoshlar uchun ibrat manbai bo'lib, ularni mehnatsevarlik, qat'iyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Har bir medal, har bir g'alaba yoshlar ongida "bu mening xalqimning kuchi" degan faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Jismoniy madaniyatni shakllantirish nuqtayi nazaridan dyuzdo mashg'ulotlarining samaradorligi tizimlilik va uzluksizlik bilan belgilanadi. Mashg'ulotlar rejasi yoshlarning fiziologik rivojlanish bosqichlariga moslashtirilgan bo'lib, bunda harakat koordinatsiyasi, kuch, chaqqonlik va tezlik bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Shu jarayonda murabbiy yosh sportchining nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatini ham nazorat qiladi. Chunki dyuzdoda ruhiy barqarorlik va irodaviy tayyorgarlik g'alabani muhim omillaridan biridir. Shuningdek, mashg'ulotlar davomida sportchilar o'z sog'lig'ini asrash, shikastlanishlarning oldini olish, to'g'ri tiklanish usullarini o'rganishadi, bu esa umumiy jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dyuzdo sporti ta'lim muassasalari tizimida ham o'zining o'рни va samaradorligini namoyon etmoqda. Maktab va kollejlarda qoshida tashkil etilgan sport to'garaklari orqali yoshlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, salbiy illatlardan yiroq turish, o'z kuchini foydali yo'nalishga sarflash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlikka, sog'lom muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, dyuzdo musobaqalari yoshlar orasida sog'lom raqobat, do'stlik va hurmat muhitini mustahkamlaydi.

Amaliy jihatdan qaraganda, dyuzdo yoshlarning o'z jismoniy va psixologik imkoniyatlarini ochib beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ularning o'z-o'zini anglash jarayoni, hayotda o'z o'rnini topish va maqsad sari intilish motivatsiyasi aynan sport muhitida shakllanadi. Shu ma'noda dyuzdo yoshlar ijtimoiylashuvining samarali modeli bo'lib, u milliy g'urur, jismoniy madaniyat, axloqiy barkamollik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtiradi.

Shunday qilib, dyuzdo sporti yoshlar orasida jismoniy barkamollikni shakllantirish bilan birga, ularning ichki dunyosida milliy g'urur, vatanparvarlik, intizom va axloqiy yetuklikni rivojlantiradi. Bu sport turi shaxsning jismoniy, ruhiy va ma'naviy jihatdan uyg'un rivojlanishini ta'minlovchi murakkab, ammo samarali tarbiya vositasidir. O'zbekiston sharoitida dyuzdo milliy qadriyatlar, sport an'analari va zamonaviy ta'lim falsafasini birlashtirgan ijtimoiy institut sifatida yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois bu sohani qo'llab-quvvatlash, ilmiy-metodik asoslarini kuchaytirish va keng ommalashtirish nafaqat sport sohasining, balki butun jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR


Dyuzdo sportining yoshlar orasida milliy g'urur va jismoniy madaniyatni shakllantirishdagi roli chuqur ijtimoiy va tarbiyaviy mazmunga ega. U nafaqat sport intizomi sifatida, balki yoshlarni vatanparvarlik, hurmat, jasorat va axloqiy barkamollik ruhida tarbiyalaydigan ijtimoiy institut sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dyuzdo orqali shakllanadigan intizom, sabr-toqat va o'zini nazorat qilish qobiliyati yoshlarning ma'naviy kamolotini mustahkamlaydi hamda ularni jamiyatning faol, mas'uliyatli a'zolari sifatida shakllantiradi. Bu sport turi jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik va axloqiy yetuklikni rivojlantirib, shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Sohani rivojlantirish nuqtayi nazaridan eng muhim masalalardan biri – dyuzdoning ta'lim tizimiga chuqur integratsiyasini ta'minlashdir. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida dyuzdo to'garaklari, maxsus sport maktablari va iqtidorli yoshlarni tayyorlash markazlarini ko'paytirish zarur. Shu bilan birga, murabbiylar malakasini oshirish, sport metodikasini xalqaro standartlarga moslashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-tadqiqot ishlari orqali dyuzdoning psixologik, fiziologik va pedagogik ta'sir mexanizmlarini o'rganish, milliy sport pedagogikasiga asoslangan yangi dasturlar ishlab chiqish yoshlar tarbiyasida ushbu sport turining samaradorligini yanada oshiradi.

Davlat siyosati darajasida dyuzdo sportini qo'llab-quvvatlash, sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro musobaqalarda ishtirok etuvchi yosh sportchilarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish zarur. Aholi, xususan, o'smirlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, dyuzdo musobaqalarini ommaviy madaniy tadbirlarga aylantirish milliy g'ururni yanada kuchaytiradi. Shu yo'sinda dyuzdo nafaqat sport turi, balki yoshlarning jismoniy madaniyati, milliy o'zligi va ijtimoiy faol fuqarolik mas'uliyatini shakllantiruvchi kuchli ma'naviy platformaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nakajima T., Thompson L. Judo and the process of nation-building in Japan: Kanō Jigorō and the formation of Kōdōkan judo. – *Asia Pacific Journal of Sport and Social Science*, 2012. – 97-110 b.
2. de Souza Ribeiro A., Werneck F., Vieira J.G., Sant'Ana L., Johnston K., Baker J., Macedo Vianna J. Talent identification and development in judo: A systematic review. – *Current Issues in Sport Science (CISS)*, 2025. – (vol.9 no.1)
3. Vorobeikin A., Hassoon A., Kurbanbaeva N., Sushchenko V., Glukhov A., Zimonovsky A., Shulman E., Rudenko D., Zhuiko D. Formation of motivation for judo classes in 9–10-year-old children. – *European Journal of Sport and Exercise Science*, 2025. – (pdf)
4. Lee B.J. A study on the birth and globalization of sports originated ... – (article) 2016. – (PMC)
5. Ciaccioni S. Intergenerational Judo: Synthesising Evidence. – (PMC) 2024.
6. Dubinsky Y. An Exploratory Discussion on Country Image in Tokyo 2020. – *Sport in Society*, 2024.
7. Nolte P.L. Original Article Judo as a tool to reinforce value-based ... – *EFSUPIT journal*, 2023.
8. Kavoura A., Ryba T.V. Identity tensions in dual career: the discursive construction of future selves by female Finnish judo athletes. – *Sport in Society*, 2020.
9. Sacripanti A., De Blasis T. Safety on Judo Children: Methodology and Results. – arXiv preprint, 2017.
10. Sacripanti A. A Biomechanical Reassessment of the Scientific Foundations of Jigoro Kano's Kodokan Judo. – Arxiv preprint, 2012.
11. Tamminen K. A review of the interpersonal experience, expression, and regulation of emotions in sport. – *Sport Psychology literature*, 2024.
12. Garbeloto F. A New Developmental Approach for Judo Focusing on Health. – PMC article, 2023.
13. Marqués-Sánchez P., Benítez-Andrades J.A., Calvo Sánchez M.D., Arias N. The socialisation of the adolescent who carries out team sports: a transversal study of centrality with a social network analysis. – 2024.
14. Solmoe G.E. Martial Arts Diplomacy: Japanese Judo Delegations and ... – 2024.
15. Gutierrez-García C., et al. Effects of judo participation in children: a systematic review. – *Kinesiology & Coaching*, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.